IQLIM O'ZGARISHLARI VA GLOBALLASHUV SHAROITIDA EKOLOGIK-HUQUQIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH.....	912
Jumanazar Xolmuminov	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING JAHON TAJRIBASI	916
Kalandarova Elnura Muzaffar qizi	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA HUDUDLARNING INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	921
Rahmatullayev Bobir Chorshamiyevich	



FINANCING WATER RESILIENCE: A FEASIBILITY ANALYSIS OF SOVEREIGN BLUE BOND ISSUANCE IN UZBEKISTAN.....	926
Yakubov Jakhongir	
УКРЕПЛЕНИЕ ПАРТНЁРСТВО И СОЗДАНИЕ ЕДИНСТВЕННОГО ЭНЕРГОРЫНКА В УЗБЕКИСТАНЕ	929
Каримова Нуржахон Олим кизи	
ИННОВАЦИОННАЯ ЗРЕЛОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЯ КАК ФАКТОР РОСТА ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРИМЕНЕНИЯ КОМПЛЕКСНОЙ МОДЕЛИ	935
Алиева Эльнара Аметовна, Табаков Евгений Сергеевич	
"BUDJET JARAYONLARIDA XAVFLARNI ANIQLASH VA BAHOLASH: ICHKI AUDIT YONDASHUVLARI"	941
Abdujalilova Dilnoz Abdusattorovna, Nishonxo'djaev Bekzod Baxodir o'g'li	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA DAVLATNING ROLI	947
Raximov Baxromjon Ibroximovich	
O'ZBEKISTONDA SUT SEKTORINING QIYMAT ZANJIRINI SANOATLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	951
Urazov Jamshidjon Sa'dullayevich	
STRATEGIK BOSHQARUV HISOBIDA XARAJATLAR HISOBI VA KALKULYATSIYA TIZIMLARINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	955
Hamroyeva Zuhra Amiral qizi	
АНАЛИЗ И ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В АЗЕРБАЙДЖАНЕ	961
Ариф Мустафаев	
ФАКТОРЫ ВЛИЯЮЩИЕ НА ИЗМЕНЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ.....	968
Ишонкулова Феруза Асатовна	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSION HUQUQIY SIYOSATIDA GLOBAL REYTINGLARNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	974
Gavhar Bekmurodova Adham qizi	
XALQARO MOLIYA BOZORIDA KREDIT RISKINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	981
Ochilova Xusniya Olim qizi, Yuldasheva Umida Asanaliyevna	
JAHONDA BRONLASH TIZIMLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARINING EVOLYUTSIYASI.....	987
Ismatillaeva Sitara Sayfidin qizi	
MILLIY IQTISODIYOT INNOVATSION SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA JAHON TAJRIBALARI.....	994
Samadqulov Muhammadjon Islom o'g'li	
HUDUDIIY RIVOJLANISHDA SOLIQ IMTIYOZLARINING AHOLI DAROMADLAR DINAMIKASIGA TA'SIRI.....	998
Olimjon Fattoyev G'ayrat o'g'li	
OLIIY TA'LIM MUASSASALARINING ZAMONAVIY SHAROITLARDA RAQOBATBARDOSHLIGI: NAZARIY JIHATLARI VA AMALIY BOSHQARUV STRATEGIYALARI	1002
Adizov Bobir Baxtiyorovich	
ZAMONAVIY SHAROITDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI RISKLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1005
Sirojiddinov Kamoliddin Ikromiddinovich, Nasritdinov Bekzod Xusnutdinovich	
NAMANGAN VILOYATIDA QURILISH KLASHTERINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI VA ISTIQBOLLI MANBALARI.....	1011
Abduraxmanov Muxtorali Abduvoxidovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ ПОВЫШЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	1016
Авезова Шахноза Махмуджановна	
MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHGA TA'SIR KO'RSATADIGAN OMILLAR.....	1022
Obilov Mirkomil Rashidovich	



“O‘ZBEKISTONDA TURIZMNING MADANIY IDENTIKLIKKA TA’SIRI: SOTSIOLOGIK TAHLIL”	1028
Alijonova Nargiza Rashidjon qizi	
STATISTICAL ANALYSIS OF CREDIT INTEREST RATES.....	1034
Abdullayev Shakhobiddin Shamsiddinovich	
QISHLOQ XO‘JALIGIDA LOGISTIKA XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH METODLARI VA SAMARALI TA‘MINOT ZANJIRI MODEL.....	1037
Olimova Bahora Shuxratovna	
INNOVASION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHINING NAZARIY JIHATLARI.....	1042
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT BAZASI BARQARORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMIL SIFATIDA FOIZ SIYOSATI VA UNING AMALIY JIHATLARI.....	1047
Axmedova Dilafruz Elshodovna	
B2BDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBALAR.....	1053
Abdubotirova Madinaxon	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИННОВАЦИОННО - ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ.....	1059
Баходирова Хилола Баходировна	
RAQOBATBARDOSH MAHSULOT ISHLAB CHIQRISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYASIDAN FOYDALANISH.....	1063
Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, Abdurazakova Diyora	
ENERGIYA XARAJATLARINI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY SAMARASI.....	1070
Urmanbekova Iroda Farxodovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF REMOTE BANKING SERVICES IN THE CONTEXT OF BANKING TRANSFORMATION	1075
Jabborov Bahriddin Rashidovich	
MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY-XO‘JALIK FAOLIYATINI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH TARTIBI.....	1079
G‘ofurov Iskandar Abduraxmonovich	
BANKLARNING INVESTITSIYA RISKLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	1084
Yuldashev Erkin Xusanovich	
MA’LUMOTLAR BAZASINING RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAGI AHAMIYATI.....	1090
Maxamadiyev M. M.	
УСТОЙЧИВОСТЬ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ: АНАЛИЗ СТРАТЕГИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ АКИБ «ИПОТЕКА-БАНК» ПОСЛЕ ВХОЖДЕНИЯ В ОТП GROUP.....	1095
Каримова Нуржахон Олим кизи	
O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM MUASSASALARIGA XORIJLIK TALABALARNI JALB ETISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1101
Sharopova Nafosat, Xolmamatov Diyorbek	
DAVLATNING IJOBIY IMIJINI YARATISHDA TURIZM VA XALQ DIPLOMATIYASINING STRATEGIK O‘RNI	1108
Kasimova Zilola G‘ulomiddin qizi	
JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUASSASALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	1116
Toshmurodov Abdurauf Ravshanovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ТОПЛИВНО-ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА УЗБЕКИСТАНА – 2025.....	1122
Ш.К.Жалилов	
“O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING O‘RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI”	1126
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
MAMLAKATDA INVESTITSIYA JARAYONLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1130
Xusanov Durbek Nishanovich	
TURIZM XIZMATLARI TUSHUNCHASI VA ULARNI INNOVATSION TASHKIL ETISHNING IQTISODIY MOHIYATI.....	1138
Najmidinov Azizbek Bahrom o‘g‘li	



MINTAQAVIY IQTISODIYOTDA TURISTIK INFRATUZILMANI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI.....	1143
Xalmirzayev Axmadjan Axunovich, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
O'ZBEKISTONDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING HOLATI VA TENDENSIYALARI.....	1149
Ahmedov Shermuhammad Omonjon o'g'li	
MARKETING KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	1156
Akramov Toxir Abdiraxmanovich	
SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1161
Adashev Azimjon Urinboyevich	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1165
Abdunazarova Dilshoda Akromovna	
INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISHDA BOSHQARUV HISOBİ AXBOROTINING AHAMIYATI	1170
Xushvaqtova Nozanin Nurbek qizi	
OLİY TA'LİM TIZIMIDA INTEGRATSIYA JARAYONLARINI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI VA ULARNING TA'LİM XIZMATLARI BOZORIDAGI AHAMIYATI.....	1177
Ismoilova Feruza Kubaymurodovna	



OLIJ TA'LIM TIZIMIDA INTEGRATSIYA JARAYONLARINI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI VA ULARNING TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDAGI AHAMIYATI



Ismoilova Feruza Kubaymurodovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Raqamli iqtisodiyot kafedrası mustaqil izlanuvchi

E-mail: feruzakubaymurodovna@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida integratsiya jarayonlarini amalga oshirish shakllari hamda ularning ta'lim xizmatlari bozoridagi ahamiyati tahlil qilingan. Ta'lim xizmatlari bozori globallashuv va raqobat sharoitida barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida oliy ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlikni kengaytirish, xalqaro ta'lim standartlarini joriy etish, qo'shma ta'lim dasturlari va ilmiy loyihalarni rivojlantirish zaruriyati asoslab berilgan. Shuningdek, integratsiya jarayonlarining ta'lim xizmatlari sifatini oshirish, mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, innovatsion g'oyalarni joriy etish hamda ta'lim eksportini rivojlantirishdagi o'rni yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: raqobat, talab, oliy ta'lim tizimi, integratsiya, ta'lim xizmatlari, qo'shma ta'lim dasturlari, akademik mobillik, xalqaro akkreditatsiya.

Abstract. This article analyzes the forms of implementing integration processes in the higher education system and their significance for the educational services market. The necessity of expanding cooperation among higher education institutions, introducing international educational standards, and developing joint educational programs and research projects to ensure the sustainable development of the educational services market under conditions of globalization and competition is substantiated. In addition, the role of integration processes in improving the quality of educational services, training highly qualified specialists in line with labor market requirements, introducing innovative ideas, and developing educational export is highlighted.

Key words: competition, demand, higher education system, integration, educational services, joint educational programs, academic mobility, international accreditation.

Аннотация. В статье проанализированы формы реализации интеграционных процессов в системе высшего образования и их значение для рынка образовательных услуг. Обоснована необходимость расширения сотрудничества между высшими учебными заведениями, внедрения международных образовательных стандартов, развития совместных образовательных программ и научных проектов для обеспечения устойчивого развития рынка образовательных услуг в условиях глобализации и конкуренции. Также раскрыта роль интеграционных процессов в повышении качества образовательных услуг, подготовке высококвалифицированных специалистов, соответствующих требованиям рынка труда, внедрении инновационных идей и развитии экспорта образования.

Ключевые слова: конкуренция, спрос, система высшего образования, интеграция, образовательные услуги, совместные образовательные программы, академическая мобильность, международная аккредитация.



KIRISH

Bugungi kunda jadal rivojlanayotgan globallashuv va xalqaro hamkorlik jarayonlari ta'lim xizmatlari bozorida ham sezilarli o'zgarishlarga olib kelmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan asosiy vazifalardan biri – xalqaro miqyosda raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash, ta'lim sifatini oshirish hamda ilmiy salohiyatni rivojlantirishdan iboratdir. Bu jarayonni samarali tashkil etishda integratsiya jarayonlari muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Integratsiya nafaqat ta'lim dasturlarini uyg'unlashtirish va metodik asoslarni rivojlantirishni, balki ilmiy-tadqiqot faoliyatini kengaytirish, xalqaro akademik almashinuvlarni yo'lga qo'yish, qo'shma ta'lim loyihalari va dasturlarini joriy etishni ham o'z ichiga oladi.

Oliy ta'lim tizimi jahon iqtisodiyotining rivojlanish jarayoniga integratsiyalashuv bosqichida turibdi. Ta'lim sohasidagi integratsiya zamonaviy jahon iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotining globallashuvi bilan bog'liq ob'ektiv, tarixiy-progressiv jarayonning organik elementi bo'lib, ilg'or mamlakatlar iqtisodiyoti faoliyatida yuz berayotgan tub tarkibiy o'zgarishlar hamda barcha sohalarida bilimlarning sifat jihatidan keskin o'sishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Integratsiya jarayonlari va xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi ishlab chiqarish va bandlik tarkibiga, shu jumladan, mehnat bozori va ta'lim xizmatlari bozoriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ko'p jihatdan milliy ta'lim tizimlarini modernizatsiya qilish, ilmiy tadqiqotlarga sarflanadigan xarajatlarni ko'paytirish va o'quv jarayoniga innovatsiyalarni joriy etish natijasida mehnat unumdorligini oshirishga erishilmoqda.

Tarmoq sifatida ta'lim aholining ta'lim xizmatlariga bo'lgan turli ehtiyojlarini qondirish, hududning kadrlar salohiyatini oshirish va rivojlantirishga qaratilgan ta'lim faoliyatini amalga oshiruvchi muassasalar, tashkilotlar va korxonalar majmuasini ifodalaydi. Ta'lim muassasalarining asosiy faoliyati ta'lim xizmatlarini yaratishdan iboratdir. Ta'lim xizmatlari, boshqa mahsulotlar singari, mintaqaviy iste'mol bozorlarida sotiladi, bu esa muayyan hududdagi mavjud va potensial iste'molchilar hamda tovar va xizmatlar yetkazib beruvchilar majmuasi sifatida talqin etiladi.

Ta'lim xizmatlari bozori esa asosiy xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning (uy xo'jaliklari, korxonalar va tashkilotlar, davlat va mahalliy boshqaruv organlari) ta'lim xizmatlariga bo'lgan talabi hamda ushbu xizmatlarning turli ta'lim muassasalari tomonidan taklif etilishi jarayonida shakllanadigan bozor munosabatlari majmuasini anglatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim tizimida integratsiya jarayonlarini amalga oshirish shakllari hamda ularning ta'lim xizmatlari bozorining rivojlanishi va hududiy ta'lim tizimlari faoliyati jarayonida vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlarga ta'siri masalalari ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo'lib, mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar Gaynarov D.A., Galyamov R.R., Baburin V.A., Balyxin G.A., Volkov S.D., Guzov Yu.N., Lisitsin S.A., Minaev D.V. va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan.

Mavzu yuzasidan mahalliy olimlarimizdan G.N. Axunova, S.S. G'ulomov, D.N. Rahimova, M.X. Saidovlar ham ta'lim tizimi, yoshlar bandligi muammolari, mehnat bozori segmentlari hamda yuqori malakali kadrlar tayyorlash masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Ushbu olimlarning ilmiy ishlari oliy ta'lim tizimida integratsiya jarayonlarini amalga oshirish shakllari va ularning ta'lim xizmatlari bozoridagi ahamiyatini asoslashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Ular tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ta'lim tizimini xalqaro darajada sifatli va raqobatbardosh rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oliy ta'lim tizimida integratsiya jarayonlarini amalga oshirish shakllarini o'rganish ilmiy metodologiyada kompleks yondashuvga asoslanadi. Tadqiqot metodologiyasi integratsiya jarayonlarining nazariy va amaliy asoslarini chuqur yoritish, ularning ta'lim xizmatlari bozoridagi ahamiyatini aniqlash hamda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga xizmat qiluvchi ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Mazkur jarayonni chuqur tahlil qilish, uning muvaffaqiyat omillarini aniqlash va natijalarini samarali boshqarish maqsadida jamlash va guruhlash, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy ta'lim tizimida integratsiya jarayonlarini amalga oshirish shakllari turlicha bo'lib, ular ta'lim xizmatlari bozorining jadal rivojlanishi hamda talablariga moslashuvchanlikni ta'minlaydi. Jumladan, talabalar va professor-o'qituvchilar almashinuvi, qo'shma fakultetlar va dasturlar, xalqaro ilmiy konferensiyalar, innovatsion loyihalar hamda qo'shma diplom dasturlari integratsiyaning eng samarali shakllari sifatida e'tirof etiladi. Ushbu jarayonlar



oliy ta'lim muassasalarining xalqaro nufuzini oshirish, mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va ta'lim xizmatlari eksportini kengaytirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

O'quv va ilmiy muassasalar hamda ishlab chiqarish korxonalarining turli xil o'quv, ilmiy va ishlab chiqarish majmualariga integratsiyalashuvi rivojlanib bormoqda. Bu esa turli darajadagi ta'lim dasturlari uzluksizligi muammolarini tizimli hal etish, ta'lim, fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, mavjud moddiy-texnika bazasi, pedagogik kadrlar va moliyaviy resurslardan to'liq hamda samarali foydalanish imkonini beradi.

Integratsiya jarayonlari va millatlararo mehnat taqsimotining chuqurlashuvi ishlab chiqarish va bandlik tarkibiga, shunga mos ravishda mehnat bozori va ta'lim tizimiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Oliy ta'lim tizimining holati va kadrlarning malaka darajasi zamonaviy jamiyatlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari bo'lib, bu jarayon ta'lim siyosatini uyg'unlashtirish va kadrlar tayyorlash milliy tizimlarini jahon bozorining tubdan o'zgargan sharoitlariga integratsiyalashuvini talab etadi.

Rivojlangan mamlakatlarda oliy kasbiy ta'lim tizimini samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish, ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash hamda xarajatlarni optimallashtirish nuqtai nazaridan rivojlantirish zarurati oliy ta'lim muassasalarini integratsiyalashuvining asosli shakllarini tanlashni taqozo etadi.

Ta'lim tizimidagi integratsiya ijobiy hodisa bo'lib, u ta'lim va ilmiy salohiyatni oshiradi, ta'lim muassasalarining o'quv, ilmiy va boshqa xizmatlar ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytiradi, resurslardan yanada samarali foydalanishga yordam beradi hamda ta'limni modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Universitetlarning integratsiyasi har bir ishtirokchi oliy ta'lim muassasasi uchun ta'lim xizmatlari bozorida barqarorlikni ta'minlaydi, mahsulot portfelini kengaytiradi va taklif etilayotgan loyihalarning ijtimoiy ahamiyatini oshiradi.

Oliy ta'lim tizimidagi integratsiyaning nazariy va uslubiy asoslarini asoslashda quyidagi qonuniyatlardan kelib chiqish zarur:

- tizimli integratsiyaga tizimning tarkibiy, mazmuniy va protsessual elementlari birligi orqali erishiladi;
- integratsiyalashgan komponentlarning aniq maqsadga yo'naltirilganligi sharoitida integratsiya samaradorligi oshadi;
- integratsiyalashgan tizim subyektlari me'yoriy-huquqiy baza bilan qo'llab-quvvatlanadigan o'zaro manfaatli munosabatlarni shakllantirishga tayyor bo'lishi sharti bilan integratsiya samaradorligiga erishiladi;
- ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasining mahsulдорligi kasbiy standartlarni ishlab chiqish bilan belgilanadi;
- zamonaviy mutaxassis tayyorlash jarayonining yaxlitligi tegishli ta'lim dasturlarining mavjudligiga bog'liq.

Soha mezonlari bo'yicha kadrlar tayyorlashni boshqarishga yo'naltirilgan klasterlarni yaratish va rivojlantirish ta'lim hamda ishlab chiqarish integratsiyasi samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Aniqlangan qonuniyatlar asosida oliy ta'lim tizimiga integratsiyalashuvning umumiy ilmiy tamoyillari shakllantiriladi, xususan:

- yaxlit tizimda sifat jihatidan yangi funksiyalarning paydo bo'lishiga xizmat qiluvchi muvofiqlashtirilgan bog'lanishlar sonini oshirishni nazarda tutuvchi sinergiya tamoyili;
- ilgari bir-biridan farq qilgan qismlar va elementlarni yagona butunga birlashtirish orqali o'zaro ta'sirning yaxlit shakllarini rivojlantirish imkonini beruvchi dolzarblik tamoyili;
- "o'rta ta'lim muassasasi – universitet – ishlab chiqarish" tizimi elementlari o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan simbioz tamoyili;
- tarmoq mezonlari bo'yicha turli darajadagi kasbiy ta'lim muassasalarini birlashtirishni nazarda tutuvchi klasterlash tamoyili;
- tizimning tashqi va ichki elementlarining o'zaro uyg'unligi va bir-birini to'ldirishini ta'minlovchi tizimlilik tamoyili.

Oliy kasbiy ta'lim tizimini samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish, ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash hamda xarajatlarni optimallashtirish zarurati oliy ta'lim muassasalarini integratsiyalashuvining asosli shakllarini tanlashni talab etadi. Ta'lim muassasalarini integratsiyalashuvi va oliy kasbiy ta'lim tizimining istiqbolli modeliga o'tish strategiyasi quyidagi bosqichlar orqali amalga oshiriladi: vazifalarni belgilash, vaziyatni baholash, o'rganish, muhokamalar o'tkazish hamda bevosita integratsiyani amalga oshirish.

Oliy ta'lim tizimida integratsiya jarayonlari zamonaviy global ta'lim makonining ajralmas qismi hisoblanadi. Integratsiya, avvalo, turli mamlakatlarning ta'lim tizimlari, oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlari o'rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish, ilg'or tajribalarni almashish hamda ta'lim xizmatlari sifatini xalqaro standartlarga moslashtirishga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim tizimida integratsiya jarayonlarini amalga oshirish shakllari quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval).



1-jadval. Oliy ta'lim tizimida integratsiya jarayonlarini amalga oshirish shakllari

№	Integratsiya shakli	Mazmuni	Ta'lim xizmatlari bozoridagi ahamiyati
1.	Qo'shma ta'lim dasturlari	Ikki yoki undan ortiq universitetlar o'rtasida qo'shma o'quv dasturlari va qo'shma diplom berish tizimi	Xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash
2.	Ilmiy-tadqiqot hamkorligi	Qo'shma ilmiy loyihalar, grantlar, laboratoriyalar va innovatsion markazlar tashkil etish	Ilm-fan rivojini tezlashtirish, innovatsion iqtisodiyotga hissa qo'shish
3.	Akademik mobillik	Talabalar va professor-o'qituvchilarning xorijiy OTMlarda o'qishi va tajriba almashishi	Kadrlar malakasini oshirish, ta'lim sifatini yuksaltirish
4.	Xalqaro akkreditatsiya tizimlari	OTM faoliyatini xalqaro mezonlar asosida baholash va reytinglarda qatnashish	Ta'lim xizmatlari sifatini oshirish, jahon ta'lim makoniga chiqish
5.	Ta'lim eksporti	Mahalliy OTMlarda xorijiy talabalar uchun o'quv dasturlarini yo'lga qo'yish	Mamlakatning iqtisodiy va intellektual salohiyatini oshirish

Integratsiya jarayonlarini amalga oshirishning asosiy shakllaridan biri – qo'shma ta'lim dasturlarini joriy etishdir. Ushbu jarayon ikki yoki undan ortiq universitetlar o'rtasida o'quv dasturlarini muvofiqlashtirish hamda talabalar uchun qo'shma diplomlar berish imkoniyatini yaratadi. Natijada talabalar xorijiy ta'lim tajribasini o'zlashtirish bilan birga, xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislar sifatida shakllanadi.

Ikkinchi muhim shakl – ilmiy-tadqiqot hamkorligidir. Oliy ta'lim muassasalari o'rtasida qo'shma ilmiy loyihalar, grant dasturlari va xalqaro konferensiyalarni tashkil etish ilm-fan taraqqiyotini jadallashtiradi. Bunday hamkorlik nafaqat ta'lim sifati, balki innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, akademik mobillik integratsiyaning ajralmas qismi hisoblanadi. Talabalar va professor-o'qituvchilarning boshqa davlatlardagi universitetlarda qisqa muddatli o'qishi yoki faoliyat yuritishi ularning kasbiy malakasini oshirish, ilmiy salohiyatini kuchaytirish hamda ta'lim tizimiga yangi yondashuvlarni joriy etishga imkon beradi.

Yana bir muhim yo'nalish – xalqaro akkreditatsiya tizimlarini joriy etishdir. Bu jarayon oliy ta'lim muassasalari faoliyatini xalqaro mezonlar asosida baholash, ta'lim xizmatlari sifatini oshirish hamda ularning xalqaro reytinglardagi o'rnini mustahkamlash imkonini beradi.

Integratsiya jarayonlarining ta'lim xizmatlari bozoridagi ahamiyati beqiyosdir. Birinchidan, u ta'lim xizmatlari sifatini oshirib, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi. Ikkinchidan, xalqaro hamkorlik orqali ta'lim xizmatlarining eksport salohiyati ortadi. Uchinchidan, integratsiya mamlakatning intellektual salohiyatini oshirish va ilm-fan rivojiga mustahkam zamin yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta'lim tizimida integratsiya jarayonlari zamonaviy ta'lim xizmatlari bozorining rivojlanishida muhim o'rin tutadi. U nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki milliy oliy ta'lim muassasalarini xalqaro maydonga olib chiqish, ularning raqobatbardoshligini ta'minlash hamda mehnat bozorini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlashga xizmat qiladi. Integratsiyaning qo'shma ta'lim dasturlari, ilmiy-tadqiqot hamkorligi, akademik mobillik va xalqaro akkreditatsiya kabi shakllari mamlakatning intellektual salohiyatini oshirish hamda ta'lim eksportini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Oliy ta'lim tizimida integratsiya jarayonlarini amalga oshirish bo'yicha quyidagi takliflarni keltirish mumkin:

- oliy ta'lim muassasalari o'rtasida qo'shma ta'lim dasturlarini kengaytirish va ikki diplomli o'quv dasturlarini joriy etish;
- ilmiy-tadqiqot faoliyatida xalqaro grantlar va qo'shma loyihalarda faol ishtirok etishni rag'batlantirish;
- talabalar va professor-o'qituvchilar uchun akademik mobillik dasturlarini kengaytirish orqali xalqaro tajribani jalb etish;
- oliy ta'lim muassasalarida xalqaro akkreditatsiya tizimlarini tatbiq etish hamda jahon reytinglarida ishtirok etishni kuchaytirish.

Umuman olganda, integratsiya jarayonlari ta'lim xizmatlari bozorining rivojlanishida asosiy drayverlardan biri bo'lib, milliy ta'lim tizimining barqaror o'sishini va uning xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevori. Toshkent: "Tasvir", 2021. 13 b.
2. Одегов Ю.Г., Абдурахманов К.Х., Котова Л.Р. Оценка эффективности работы с персоналом: методологический подход: учебно-практическое пособие. Москва: Альфа-Пресс, 2011. 752 с.
3. Веснин В.Р. Управление персоналом: теория и практика. Москва: Проспект, 2011. 688 с.
4. Волгин А.П. Управление персоналом в условиях рыночной экономики: учебник. Москва, 2009.
5. Usmonov B.Sh., Qodirov M.Q., Eltazarov J.D. Inson kapitalining shakllanishida ta'lim va ilm-fanning roli. Toshkent: "Fan va texnologiyalar", 2015. 200 b.
6. Valdman I.A. Haitian Creole: Structure, Variation, Status, Origin. 2014.
7. Domenek J., Eskamilla R., Roig-Tyerno N. Explaining knowledge-intensive activities from a regional perspective // Journal of Business Research. 2016. Vol. 69, No. 4. P. 1301-1308.
8. Likert R. A Technique for the Measurement of Attitudes. PhD dissertation. Columbia University; published in Archives of Psychology, 1932.
9. Eshboyev A.X. Bozor munosabatlarga o'tish davrida ta'lim tizimining milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga ta'siri: i.f.n. dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2008. 25 b.
10. Xasanova G. Oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning mazmuni // Academic Research in Educational Sciences. 2021.
11. Berezin I.S. Iqtisodiy rivojlanishning qisqacha tarixi. Moskva: Rus biznes adabiyoti, 1999. 288 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>